

AQL VA E'TIQOD KONSEPSIYALARI: IMOM MOTURIDIYNING "KITOB AT-TAVHID" ASARI ASOSIDA

Yaxshiboyev Muhammad Said Maxmudjonovich

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Narimonov Qahramon

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Imom Moturidiy (vaf. 333-944) ning mashhur "Kitob at-Tavhid" asari asosida aql va e'tiqod munosabatining falsafiy-konseptual tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida Moturidiy ta'limotida aqlning bilishdagi o'rni, uning vahiy bilan o'zaro uyg'unligi, e'tiqod masalalarida aqlning mustaqil va mas'uliyatli pozitsiyasi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada, shuningdek, Moturidiy maktabining islomiy kalom tarixidagi o'rni, aqidaviy muammolarni hal etishda ratsional yondashuvning ahamiyati hamda zamonaviy falsafiy va diniy tafakkur uchun dolzarbligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Imom Moturidiy merosining bugungi diniy-falsafiy muhitda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Tayanch so'z va iboralar: *Imom Moturidiy, "Kitob at-Tavhid", aql, e'tiqod, vahiy, kalom ilmi, ratsional tafakkur, islom falsafasi, aqida, bilish nazariyasi.*

KIRISH

Islom tafakkuri tarixida aql va e'tiqod o'rtasidagi munosabat doimo markaziy mavzu bo'lib kelgan. Ayniqsa IX–X asrlarda kalom ilmi doirasida aqlning o'rni va vahiy bilan uyg'unligi masalasi keskin munozaralarga sabab bo'lgan.

Imom Moturidiy (vaf. 333-944³⁷) "Kitob at-Tavhid" asarida aql va e'tiqodning o'zaro munosabatini tizimli va konseptual tarzda yoritadi. Uning nazarida aql insonni haqiqatga yetaklovchi asosiy vosita bo'lib, e'tiqod esa ongli va mas'uliyatli tanlov sifatida talqin qilinadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi Moturidiy ta'limotida aqlning roli va e'tiqod bilan munosabatini falsafiy-konseptual tahlil qilish, ularning kalomiy va zamonaviy ahamiyatini aniqlashdir.

TAHLIL VA MEDOTLAR

Mazkur maqolada Imom Moturidiyning "Kitob at-Tavhid" asari asosida aql va e'tiqod munosabatini o'rganishda tarixiylik, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida aql va e'tiqodga oid tushunchalar falsafiy-konseptual tahlil asosida yoritildi hamda Moturidiy qarashlari boshqa kalomiy maktablar bilan solishtirildi. Shuningdek, deduktiv va tizimli yondashuv metodlari orqali umumiy aqidaviy tamoyillardan kelib chiqib aniq xulosalar chiqarildi. "Kitob at-Tavhid" matnini sharhlashda esa germevntik metod qo'llanilib, asar g'oyalari zamonaviy ilmiy talqin asosida tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

³⁷ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hidoyat imomi. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – 14-bet.

Islom tafakkuri tarixida aql va e'tiqod o'rtasidagi munosabat masalasi doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ushbu muammo nafaqat diniy aqidaviy bahslar, balki falsafiy tafakkurning ham muhim yo'nalishini tashkil etadi. Ayniqsa, IX–X asrlarda shakllangan kalom ilmi doirasida aqlning o'rni, uning vahiy bilan munosabati masalasi keskin munozaralarga sabab bo'lgan. Ana shunday murakkab tarixiy va intellektual muhitda Imom Moturidiy o'zining chuqur ilmiy yondashuvi bilan ajralib turadi.

Imom Moturidiy Samarqand ilmiy muhitida yetishib chiqqan buyuk mutafakkir sifatida islom aqidaviy tafakkuriga muvozanatli va asosli yondashuvni taklif etdi. Uning “Kitob at-Tavhid” asari Moturidiy aqida maktabining nazariy poydevorini tashkil etib, unda aql va e'tiqod o'rtasidagi munosabat izchil va konseptual tarzda bayon qilingan. “Moturidiy aql va naql o'rtasida muvozanatni saqlagan holda sunniy kalom maktabini shakllantirgan”³⁸. Moturidiy nafaqat mu'taziliylar va an'anaviy literalistlar qarashlariga javob berdi, balki islom tafakkurida ratsional va naqliy manbalarni uyg'unlashtirgan mustahkam tizimni shakllantirdi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - “Kitob at-Tavhid” asari asosida aql va e'tiqod munosabatining falsafiy mohiyatini ochib berish, Moturidiy ta'limotining nazariy ahamiyatini tahlil qilish hamda uning bugungi zamonaviy tafakkur uchun dolzarbligini ko'rsatishdan iborat.

1. “Kitob at-Tavhid” asarining umumiy konseptual yo'nalishi.

“Kitob at-Tavhid” Imom Moturidiy qalamiga mansub eng muhim kalomiy asarlardan biri bo'lib, unda Allohning yagonaligi, sifatleri, inson erki va mas'uliyati, imon va kufr masalalari chuqur tahlil qilinadi. Asarning asosiy metodologik xususiyati shundaki, unda aql va vahiy bir-biriga zid qo'yilmaydi, balki o'zaro to'ldiruvchi manbalar sifatida talqin etiladi.

“Inson vahiy kelmasidan oldin ham aqli orqali Allohning mavjudligi va yagonaligini bilishga qodirdir”³⁹.

Moturidiy nazarida, aql insonni haqiqat sari yetaklovchi ilohiy ne'matdir. Shu bois u aqlni inkor etish yoki cheklashni diniy jihatdan asossiz deb hisoblaydi. “Kitob at-Tavhid”da muallif aql orqali Allohning mavjudligi va yagonaligini bilish mumkinligini qat'iy asoslar bilan isbotlaydi. Bu yondashuv Moturidiy ta'limotining falsafiy chuqurligini namoyon etadi.

2. Aqlning bilishdagi o'rni va imkoniyatlari.

Imom Moturidiy aqlni inson bilish faoliyatining markaziga qo'yadi. Uning ta'limotiga ko'ra, inson aqli yaxshilik va yomonlikni, foyda va zararni ajrata olish qobiliyatiga ega. Aynan shu xususiyat tufayli inson diniy mas'uliyatga loyiq bo'ladi. Agar aql bo'lmaganida, buyruq va taqiqlarning ham ma'nosi qolmagan bo'lar edi.

“Qur'onda Alloh taolo insonlarni dalillarga qarab fikr yuritishga, oyatlardan ibrat olishga va aqlni ishlatishga chaqiradi. Taqlid esa bu buyruqlarga zid bo'lib, aql va fikrdan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Aql fikr yuritish va bilim olish uchun

³⁸ Rudolph Ulrich. *Al-Maturidi and the Development of Sunni Theology in Samarqand*. – Leiden–Boston: Brill, 2015. – P. 102.

³⁹ Abu Mansur al-Moturidiy. *Kitob at-Tavhid*. Tahqiq: Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-Mashriq, 1970. – B.34.

yaratilgan. Ziyo yordamida yo'l topish o'rniga qorong'ida yurish qanchalik noto'g'ri bo'lsa, aqlni ishlatmaslik ham shunchalik zararlidir"⁴⁰.

Imom Moturidiy aqlni asosiy vosita deb bilgan asosiy masalalar:

1. Allohning mavjudligini bilishda. Imom Moturidiyga ko'ra, inson vahiy yetib kelmasidan oldin ham aqli orqali Allohning mavjudligi va yagonaligini bilishga qodir. U koinotdagi tartib, sabab–natija va mavjudotlar o'rtasidagi uyg'unlikni aqliy dalil sifatida keltiradi. Shu sababli, Allohni tanimaslik aql nuqtayi nazaridan uzrli hisoblanmaydi. Bu o'rinda aql – birlamchi bilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

2. E'tiqodning ongli bo'lishida (iymon masalasi). Moturidiy iymonni faqat taqlidga asoslangan qabul qilishni yetarli deb hisoblamaydi. Uning ta'limotida imon aql bilan tasdiqlangan va qalb bilan mustahkamlangan ishonchdir. Aql ishlatilmagan e'tiqod zaif va barqaror bo'lmaydi. Bu yerda aql imonning mustahkamlanish asosi sifatida talqin qilinadi.

3. Yaxshilik va yomonlikni ajratishda (husn va qubh). Imom Moturidiy inson aqli yaxshi va yomonni mustaqil ravishda anglay oladi, deb hisoblaydi. Adolat, zulm, yolg'on va haqiqat kabi tushunchalar aql orqali idrok etiladi. Shu sababli inson axloqiy jihatdan mas'ul hisoblanadi. Bu masalada aql axloqiy mezon vazifasini bajaradi.

4. Inson mas'uliyati va javobgarligida. Moturidiyga ko'ra, insonning diniy va axloqiy javobgarligi uning aqli mavjudot ekanligiga bog'liq.

“Aql bo'lmagan holda buyruq va taqiqlarning ma'nosi qolmaydi, chunki taklif aqlga bog'liq⁴¹”. Shuning uchun aql – taklif (mas'uliyat)ning sharti hisoblanadi. Bu o'rinda aql mas'uliyatning asosi sifatida e'tirof etiladi.

5. Vahiy va aql munosabatida. Moturidiy vahiy aqlga zid bo'lishi mumkin emas, deb qat'iy ta'kidlaydi. Vahiy aqlni inkor etmaydi, balki uni to'ldiradi va to'g'ri yo'naltiradi. Aql vahiy kelgan haqiqatni tushunish va qabul qilishda faol rol o'ynaydi. Bu yerda aql vahiy talqinining vositasi sifatida ko'riladi.

6. Botil aqidalarni rad etishda. “Imom Moturidiy bid'at va noto'g'ri e'tiqodlarni rad etishda aqliy dalillardan keng foydalanadi. U qarama-qarshi oqimlarga nafaqat naqliy, balki mantiqiy asoslar bilan javob beradi”⁴².

Moturidiy aqlni faqat nazariy bilish vositasi emas, balki axloqiy qarorlar qabul qilishda ham muhim mezon sifatida ko'radi. Unga ko'ra, inson o'z aqli orqali adolat va zulm o'rtasidagi farqni anglay oladi. Bu qarash Moturidiy maktabini qat'iy deterministik yondashuvlardan ajratib turadi.

3. E'tiqod va vahiy aql bilan uyg'unlik masalasi.

Moturidiy ta'limotida vahiy aqlni inkor etuvchi emas, balki uni to'g'ri yo'naltiruvchi manba sifatida talqin qilinadi. Vahiy aql yetib bora olmaydigan yoki aniq hukm bera olmaydigan masalalarda ilohiy rahnamo vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, vahiy orqali kelgan haqiqatlar ham aqlga zid bo'lishi mumkin emas.

Moturidiy e'tiqod masalalarini ko'r-ko'rona qabul qilishni tanqid qiladi. U imonni ongli tasdiq sifatida tushuntiradi. Demak, haqiqiy e'tiqod aql orqali anglangan va qallda

⁴⁰ Imom Moturidiy. *Kitob at-tavhid* (turk tilidan Abu Muslim tarjimasini). – Toshkent, 2024. – B.13.

⁴¹ Abu Mansur al-Moturidiy. *Kitob at-Tavhid*. Tahqiq: Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-Mashriq, 1970. – B.56.

⁴² Frank.M.Richard. The Structure of Created Causality According to al-Ash'ari// *Studia Islamica*, 1966, №25. – P.41.

mustahkamlangan ishonchdir. Bu yondashuv e'tiqodning falsafiy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

4. Moturidiy va boshqa kalomiy maktablar bilan qiyos.

Imom Moturidiy qarashlarini mu'taziliylar va ash'ariylar bilan qiyoslash uning o'ziga xosligini yanada yaqqol ko'rsatadi. Mu'taziliylar aqlni mutlaq ustuvor qo'ygan bo'lsalar, ayrim an'anaviy oqimlar aql rolini keskin cheklagan. Moturidiy esa ushbu ikki ekstremal yondashuv o'rtasida muvozanatli pozitsiyani egallaydi.

Uning nazarida, aql vahiydan mustaqil ravishda Allohning mavjudligini bilishi mumkin, biroq diniy amallar va tafsilotlarda vahiyga ehtiyoj mavjud. Ushbu muvozanatli yondashuv Moturidiy maktabining asrlar davomida keng hududlarda qabul qilinishiga sabab bo'lgan.

5. Aql va e'tiqod munosabatining zamonaviy ahamiyati.

Bugungi globallashuv va intellektual pluralizm sharoitida aql va e'tiqod o'rtasidagi muvozanat masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Imom Moturidiy ta'limoti zamonaviy diniy ekstremizm va mutaassiblikka qarshi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Moturidiy yondashuvi insonni fikrlashga, savol berishga va ongli e'tiqodga chorlaydi. Bu esa zamonaviy jamiyatda dinning sog'lom va konstruktiv talqinini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Imom Moturidiy "Kitob at-Tavhid" asarida aql va e'tiqod munosabati bir necha asosiy jihatlar orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, aql insonga Allohning mavjudligi va yagonaligini anglashda birlamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Imom Moturidiy aqli yordamida inson koinotdagi tartib va sabab–natija munosabatlarini idrok etishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu yo'l bilan inson haqiqatga yetaklanadi va diniy mas'uliyatni anglaydi.

Ikkinchidan, e'tiqodning ongli va mustahkamligi aql orqali ta'minlanadi. Moturidiyga ko'ra, imon faqat taqlidga asoslanmasligi kerak; aksincha, aql bilan anglangan va qalb bilan tasdiqlangan imon haqiqiy e'tiqod hisoblanadi. Bu esa e'tiqodning nafaqat tashqi amal, balki ichki ong va tafakkur bilan mustahkamlanishini ta'kidlaydi.

Uchinchidan, aql insonni yaxshilik va yomonlikni ajratishga qodir qiladi, bu esa diniy va axloqiy mas'uliyatning poydevoridir. Shu bilan birga, inson aqli yordamida adolat, zulm, yolg'on va haqiqat o'rtasidagi farqni idrok etadi va ongli qarorlar qabul qiladi.

To'rtinchidan, vahiy aqlga zid bo'lishi mumkin emas. Vahiy aqlni to'ldiruvchi va yo'naltiruvchi manba sifatida talqin qilinadi. Shu sababli aql vahiy mazmunini tushunish va uni ongli ravishda qabul qilishda faol vosita hisoblanadi.

Beshinchidan, aql bid'at va noto'g'ri aqidalarni rad etishda muhim rol o'ynaydi. "Moturidiy ta'limoti bugungi mutaassiblik va ekstremizmga qarshi ilmiy asos bo'la oladi"⁴³. Imom Moturidiy qarama-qarshi kalomiy oqimlarga nafaqat naqliy, balki

⁴³ Sobirov.J. *Imom Moturidiy ta'limoti va zamonaviy aqidaviy muammolar.* – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.64.

mantiqiy asoslar bilan javob beradi. Bu esa uning ilmiy, ratsional va muvozanatli konsepsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Imom Moturidiyning ta'limotida aql nafaqat bilish vositasi, balki e'tiqodni mustahkamlash, axloqiy qarorlar qabul qilish va bid'atlarni rad etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu yo'l bilan u e'tiqod va aql o'rtasidagi muvozanatni tizimli va falsafiy jihatdan mustahkamlashga erishgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Imom Moturidiyning "Kitob at-Tavhid" asarida aql va e'tiqod munosabati konseptual va tizimli tarzda yoritilgan. Aql insonni haqiqatga yetaklovchi birlamchi vosita sifatida ishlatiladi, e'tiqod esa ongli va mas'uliyatli tanlov sifatida shakllantiriladi.

Shu orqali Moturidiy ta'limoti aql bilan vahiyni bir-biriga zid bo'lmagan, balki bir-birini to'ldiruvchi manbalar sifatida ko'radi. Bundan tashqari, tadqiqot ko'rsatdiki, aql insonning axloqiy qarorlar qabul qilishi, bid'at va noto'g'ri aqidalarni rad etishi hamda diniy mas'uliyatni anglashida markaziy rol o'ynaydi.

Shu yo'l bilan Moturidiy konsepsiyasi ratsional, muvozanatli va zamonaviy diniy-falsafiy tafakkur uchun asosiy poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, Imom Moturidiyning ta'limoti bugungi kunda ham sog'lom e'tiqodni shakllantirish, ilmiy tafakkurga asos yaratish va diniy ekstremizmga qarshi nazariy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa aql va e'tiqod munosabatining falsafiy va kalomiy jihatdan davomiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Moturidiy ta'limoti islom tafakkurida ratsional va naqliy manbalar uyg'unligini ta'minlab, diniy-falsafiy tafakkurning rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.

Mazkur konsepsiya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, u zamonaviy musulmon jamiyatlarida sog'lom e'tiqod, ilmiy tafakkur va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim nazariy asos bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Frank.M.Richard. The Structure of Created Causality According to al-Ash'ari// Studia Islamica, 1966, №25. – P.13-75.
2. Rudolph Ulrich. Al-Maturidi and the Development of Sunni Theology in Samarqand. – Leiden–Boston: Brill, 2015. – P. 412.
3. Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid. Tahqiq: Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-Mashriq, 1970 – B.504.
4. Sobirov, J. Imom Moturidiy ta'limotining aqidaviy ahamiyati // Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi axborotnomasi. – Toshkent, 2021, №4. 175-186– B.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hidoyat imomi. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – B.128.